

BO'SH O'ZLASHTIRUVCHI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHNING SAMARALI USULLARI

Jumayeva Gulnora Tolibjonovna

Farg'ona viloyati So'x tumani

2-sonli AT-ga ixtisoslashtirilgan

umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

Annotatsiya: O'qituvchi tomonidan puxta o'ylangan ta'lim maqsadiga yo'naltirilgan va davomiy bo'lishi kerak bunday har bir o'quvchining imkoniyati hisobga olinishi yosh xususiyati qiziqishlari ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak o'quvchilarni aqliy rivojlantirish shartlaridan biri topshiriqlarni to'la eslab qolib bajarishdir bunda bajariladigan ishning maqsadini tushungan tasavvur qilgan holda uning rejasini belgilash va ish usulini tanlash yo'l qo'yilgan xatolarni mustaqil topa olish va uning tuzata bilishlariga alohida e'tibor beriladi.

Kalit so'zlar: past o'zlashtiruvchi, mustaqil ish, dars pedagog, sifatli, zamonaviy texnologiya, vazifa, fan, ta'lim, tarbiya, ziyrak, ruhiy rivojlanish, psixik jarayonlar

KIRISH

Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish yaxshi samara beradi. Mustaqil faoliyat insonni ziyrak va hozirjavob qiladi. Bu faoliyat kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida ta'limga uyg'un holda rivojlanishi kerak. Buning uchun, avvalo, o'quvchilarni mustaqil faoliyatga ruhan tayyorlash, ularda biror ishni qila olishga va shu ishni sifatli bajarishiga ishonch uyg'otish lozim. Mustaqil ish turlari, avvalo, o'qituvchi tomonidan puxta o'ylangan, ta'lim maqsadiga yo'naltirilgan va davomiy bo'lishi kerak. Bunda har bir o'quvchining imkoniyati hisobga olinishi, yosh xususiyati, qiziqishlari ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish yaxshi samara beradi.

Mustaqil faoliyat insonni ziyrak va hozirjavob qiladi. Bu faoliyat kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida ta'limga uyg'un holda rivojlanishi kerak. Buning uchun, avvalo,

o'quvchilarni mustaqil faoliyatga ruhan tayyorlash, ularda biror ishni qila olishga va shu



ishni sifatli bajarishiga ishonch uyg'otish lozim. Mustaqil ish turlari, avvalo, o'qituvchi tomonidan puxta o'ylangan, ta'lim maqsadiga yo'naltirilgan va davomiy bo'lishi kerak. Bunda har bir o'quvchining imkoniyati hisobga olinishi, yosh xususiyati, qiziqishlari ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. O'quvchilarni aqliy rivojlantirish shartlaridan biri topshiriqlarni to'la "eslab qolib" bajarishdir. Bunda bajariladigan ishning maqsadini tushungan (tasavvur qilgan) holda uning rejasini belgilash va ish usulini tanlash, yo'l qo'yilgan xatolarni mustaqil topa olish va uni tuzata bilishlariga alohida e'tibor beriladi. O'quvchilarning topshiriqlarni tez, to'g'ri bajarishi uchun qulay usullarni tanlash, yo'naltiruvchi savollar berib, tayanch so'zlar tavsiya etish foydalidir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinfdan yuqori sinfga qabul qilingan o'quvchiga dars beradigan o'qituvchilarga juda katta ma'suliyat yuklangan bo'ladi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari bir o'qituvchining qo'lida ta'lim-tarbiya olgan bo'ladi. 5-sinfda esa ularga turli fan o'qituvchilari dars beradi. Shuningdek, o'tilayotgan mavzular ham murakkablasha boradi. Shu sababli ham 5-sinfga qabul qilingan o'quvchilarning ayrimlarida dastavval bilimida biroz bo'shliqlar paydo bo'lishi mumkin. Fan o'qituvchilari bir-ikki dars jarayonining o'zidayoq bo'sh o'zlashtiruvchilarni aniqlab, chora-tadbirlar

belgilashlari kerak. Buning uchun esa barcha fan o'qituvchilari doimiy xamkorlikda va uzviy bog'lanishda ishlashlari darkor.

Shundagina ta'limda ham, tarbiyada ham sifat o'zgarishlari yuz berishi kutiladi. O'qituvchi, eng avvalo, dars boshqaruvchisi. O'quvchining darsdan qandaydir yangilik olishi aynan uning bilimi, saviyasi va mahoratiga bog'liq. Ammo, har bir bolaning o'z iqtidori, dunyoqarashi, qiziqishi mavjud. Har bir sinfda, xoxlaymizmiyo'qmi, o'quvchilar bir xil emas. Kimdir ona tili va adabiyotga qiziqsa, kimdir matematika, kimyo yoki horijiy tillarga ishtiyoqmand bo'lishi tabiiy. Shuningdek, ularning fanlarni o'zlashtirishi ham har xil bo'ladi. Birovi qaysidir fanni yaxshi, birovi o'rta va yaa boshqasi esa sekin o'zlashtiradi. Shu nuqtai nazardan yondashilsa, menimcha, bugungi kun o'quvchilarini uch toifaga ajratish mumkin. Birinchi toifadagi o'quvchilar tabiatan tirishqoq va ijodkor bo'lib, ular o'quv jarayonidan ma'naviy quvvat oladi. Mustaqil ishlashga intilib, turli tadbirlarda ishtirok etadi. Maktabning faxri xisoblangan bu o'quvchilar ko'proq oz o'rinlarini fan soxasidan topadilar.

Ikkinchi guruh ko'pchilikni (taxminan 45-50 foiz)tashkil qiluvchi iqtidorli o'quvchilar bo'lib, ularning o'qishga bo'lgan ishtiyoqi birinchi guruh o'quvchilariga nisbatan pastroq bo'lsada, mustaqil o'rganishga bo'lgan qobiliyati ustun , o'z ustida ishlay oladi, kamtarin, odobli, xulqi va intizomi yaxshi , jamoat ishlarida qatnashadi.

Uchinchi toifadagilar ozchilikni tashkil etadi: ular beozor o'quvchilardir.

O'quvchilarni mustaqil faoliyatga o'rgatishda quyidagilarga amal qilish lozim:– beriladigan har bir topshiriq o'quvchi imkoniyatlariga mos bo'lsin va qiziqishuyg'ota olsin;– ish osondan qiyinga, soddadan murakkabga qarab yo'naltirilsin, o'quvchigatushunarli bo'lsin;–ishni bajarishda bolalarda o'ziga ishonch hissi uyg'onsin, ishga kirishishda ular o'zlarida dadillik topshiriqlar turini almashtirishga alohida ahamiyat berish kerak;– topshiriqlarni hamma bir vaqtda boshlab, ma'lum vaqtda tugatishi kerakliginieslatib, bo'sh o'zlashtiruvchi bolalarni shu talabni bajarishga ko'niktirish lozim;– ish joyi hamisha qulay, saranjom-sarishta bo'lishi(parta ustida ortiqcha narsalarbo'lmasligi) kerak;– topshiriqlar darsning turli bosqichida bajarilishi mumkin;– darslik, didaktik materiallar bilan ishlashda uzviylik bo'lishi maqsadga muvofiq.Uyga beriladigan vazifalar ham mustaqil ishning bir turidir. Bolalarga, ilojiboricha, sinf

sharoitida asosiy bilim va malakalarni singdirish, uyga vazifalar berishda me'yorga amal qilish kerak. Bolalar darsdan(og'ir, mashaqqatlimehnatdan) keyin tiniqib dam olsalar, ko'proq ochiq havoda bo'lib, harakatli o'yinlar, sayr bilan vaqt o'tkazib, tunda osuda uxlab, ertangi kungi darslarga yaxshi kayfiyat bilan kelsalar, darsni o'zlashtirish yaxshi bo'ladi. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni bilimli, salohiyatli qilib tarbiyalashda turli xil metodlardan foydalanib bilimlarini oshirish ularni barkamol inson qilib tarbiyalash bugungi kunda zarur bo'lib kelmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytsek past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlash jarayonini tashkil etishda zamonaviy ta'lim-tarbiyada texnologiyadan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi shunday ekan yangi metodlar dan foydalanish bilan bir qatorda ta'lim texnologiyalarni ham bu jarayon bilan uzviy ravishda bog'lab berishimiz kerak. Bundan tashqari o'qituvchining pedagogik mahorati zamonaviy dars o'tish usullardan foydalanishi bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchi bilan yakka tartibda ish olib borish natijasida uni samarasi amalga oshishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" //Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: "Sharq" nashriyot matbaa-konserni. 1997yil.
- 2.Mavlonova R., Vohidova N., Rahmonqulova I., Pedagogika nazariyasi va tarixi (darslik) –T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti 2010-yil.
- 3.Qiyomiddin Nazirov (tuzuvchi). Falsafa qomusiy lug'at. –T: "Sharq" nashriyoti. 2004-yil
- 4.Kasb-hunar ta'limi" jurnali 2007-yil.
- 5.ziyo.net